

**LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQOTLARDA KONSEPT VA
MADANIYAT MUNOSABATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

**THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF THE
RELATIONSHIP OF CONCEPT AND CULTURE IN LINGUOCULTURAL
RESEARCH**

Usmonova Iroda Sobir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich magistranti

irodausmonova22@gmail.com

+998906681698

ANNOTATSIYA. Maqolada zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiya doirasida konsept va madaniyat tushunchalarining o'zaro dialektik aloqasi tadqiq etiladi. Konseptning ko'p o'lchovli mental birlik ekanligi, uning struktura qatlamlari (tushunchaviy, obrazli va qadriyatli) hamda lisoniy olam manzarasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy madaniyatning tildagi reprezentatsiyasi o'zbek tili misollari yordamida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, konsept, madaniyat, kognitiv tilshunoslik, lisoniy olam manzarasi, mentalitet, konseptosfera, etnosotsium, qadriyat.*

ABSTRACT. The article studies the dialectical relationship between the concepts of concept and culture within the framework of linguoculturology, one of the priority areas of modern linguistics. The concept is a multidimensional mental unity, its structural layers (conceptual, figurative and value) and its role in shaping the linguistic worldview are analyzed. Also, the representation of national culture in the language is substantiated using the examples of the Uzbek language.

Keywords: *linguoculturology, concept, culture, cognitive linguistics, linguistic worldview, mentality, conceptsphere, ethnosociety, value.*

KIRISH

XX asrning oxiriga kelib tilshunoslikda paradigmalarning o'zgarishi kuzatildi: tadqiqotlar markaziga til tizimi emas, balki tilning egasi bo'lgan "inson" chiqdi. Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til, tafakkur va madaniyat yaxlitligini o'rganuvchi lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik sohalarining taraqqiyotiga turtki berdi. Ushbu sohalarining kesishuv nuqtasida esa konsept tushunchasi turadi. Konsept va madaniyat munosabati muammosi faqat tilshunoslik emas, balki falsafa,

madaniyatshunoslik va psixologiya fanlari uchun ham dolzarbdir. Zero, har bir xalq o'zining ko'p asrlik tajribasi, e'tiqodi va turmush tarzini muayyan mental birliklar – konseptlar ko'rinishida o'z tilida muhrlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Konsept – bu til birliklarida ifodalangan, milliy madaniyatning mental komponentlarini o'zida mujassamlashtirgan ma'naviy ma'no birliklar to'plamidir. U nafaqat leksik ma'no balki kognitiv, axiologik (qadriyatga oid) va kontekstual komponentlarni ham hamda aks ettiradi. Konsept til foydalanuvchisining mental xaritasida shakllanadi va madaniy xabardagi eng kichik, lekin eng mazmunli birlik hisoblanadi. “Konsept” atamasi tilshunoslikka kirib kelgunga qadar mantiq va falsafada keng qo'llanilgan. Biroq lingvokulturologik ma'noda konsept shunchaki “tushuncha” (notion) emas. S.A.Askoldov konseptni “o'tmish tajribasini hozirgi muloqotga bog'lovchi mental shakllanish” deb ta'rifladi, D.S.Lixachev uni “milliy madaniyatning boyligi, uning tildagi vakili” deb hisoblaydi[1]. Konseptning tushunchadan farqi shundaki, u nafaqat obyekt haqidagi umumiy ma'lumotni, balki unga nisbatan xalqning emotsional munosabatini, mifologik tasavvurlarini va milliy qadriyatlarini ham o'z ichiga oladi. Masalan, “suv” tushunchasi fizik nuqtai nazardan kimyoviy birikma bo'lsa, o'zbek madaniy konsepti sifatida u – poklik, tiriklik manbayi, duo (“suvdek serob bo'l”), azizlik ramzidir.

Har bir xalq dunyoni o'ziga xos tarzda kategoriyalarga ajratadi. Vilgelm fon Gumbolt aytganidek, “Til – bu xalq ruhining tashqi ko'rinishidir” [2]. Madaniyat tilda konseptlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi, bu esa o'z navbatida “lisoniy olam manzarasi”ni yaratadi. Masalan, o'zbek tilidagi “Andisha” konseptini olaylik. Ushbu konseptni boshqa tillarga (masalan, rus yoki ingliz tillariga) birgina so'z bilan aniq tarjima qilib bo'lmaydi. Chunki uning zamirida o'zbek xalqining kamsuxanlik, kattaga hurmat, vazminlik va o'zgarlar fikrini inobatga olish kabi murakkab madaniy kodlari yotadi. Shuningdek, “Mahalla” konsepti ham shunchaki hududiy birlik emas, balki ijtimoiy nazorat, birdamlik va jamoaviy tarbiya institutidir.

D.S.Lixachev tomonidan fanga kiritilgan “konseptosfera” atamasi muayyan bir millat madaniyati tayangan barcha konseptlar majmuasini anglatadi[1]. Xalqning konseptosferasi qanchalik boy bo'lsa, uning tili va madaniyati shunchalik qadimiy va rang-barang hisoblanadi. O'zbek konseptosferasi quyidagi konsept majmualarini uchratish mumkin:

- Oilaviy qadriyatlar: ota, ona, farzand, duo, sadoqat.
- Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar: mehmon, uvol-savob, sharm-hayo, mehr-oqibat.
- Tabiat va ne'matlar: non, tuproq, quyosh, choy[5].

Ushbu konseptlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'zbek xalqining milliy mentalitetini tashkil qiladi.

Lingvokulturologiyada konseptlarni o'rganishda quyidagi metodlar qo'llanadi:

- Korpus tahlili: keng hajmdagi matnlardan konseptlar kontekstini va ma'nosini aniqlash uchun korpus lingvistika usullari qo'llanadi.
- Kognitiv eksperimentlar: subyektlar bilan psixolingvistik tahlillar orqali konseptlar qabul qilinishi va ular bilan bog'liq tasavvurlar o'rganiladi.
- Solishtirma tahlil: turli tillardagi konseptlar taqqoslanadi, madaniyatlararo o'xshashlik va farqlar aniqlanadi[6].

Lingvokulturologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir tilda mavjud bo'lgan konsept boshqa tilga tarjima qilinayotganda so'zma-so'z yondashuv yetarli bo'lmaydi. Masalan, ba'zi konseptlar milliy qadriyat bilan shunchalik chambarchas bog'ki, ularni tarjima qilishda qo'shimcha izohlar yoki madaniy kontekst taqdim etish talab etiladi. Shu sababli, tarjimon konseptlarni tarjima qilayotganda madaniy interpretatsiyaga asoslanadi.

MUHOKAMA VA TAHLIL

Konsept va madaniyat munosabatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, madaniyat tilda ikki xil usulda yashaydi:

1. Denotativ usul: predmet va hodisalarning nomlanishida. Bu komponent konseptning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi yoki real holati bilan bog'liq bo'lgan ma'noni anglatadi. Masalan, "oila" konsepti real oilaviy tizimni ifodalaydi.

2. Konnotativ usul: so'zlarga yuklangan qo'shimcha ma'no, ramziylik va qadriyat orqali. Bu konseptning mental sxemasi, ya'ni til foydalanuvchisining dunyoqarashi va bilim strukturasi. Masalan, "vatan" konsepti nafaqat geografik tushuncha balki milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va fidoyilikni o'z ichiga oladi[8].

Madaniyat o'zgarishi bilan konseptlar ham transformatsiyaga uchraydi. Masalan, bugungi globalashuv davrida an'anaviy o'zbek konseptlariga yangi (global) ma'nolar qo'shilmoqda. Biroq bazaviy konseptlar (Masalan: Non, Ona, Vatan) o'zining barqaror madaniy yadrosini saqlab qoladi. Shu bilan birga har bir konsept o'zi mavjud bo'lgan til va davr uchun ma'lum lingvokulturologik funksiyalarni bajaradi:

- konsept til va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni turlicha darajalarda ifodalaydi, madaniy tasavvurlarni shakllantiradi;
- konseptlar til orqali madaniy qadriyatlar va urf-odatlarini tarbiyalaydi va avloddan avlodga o'tkazadi;
- konseptlar milliy dunyoqarash, qadriyat tizimi va orientirlar haqida ma'lumot beradi. Masalan, "axloq", "g'urur", "oilaviy qadriyatlar" kabi konseptlar turli xalq tafakkurida farqli ma'nolar kasb etadi.
- til foydalanuvchilari o'zaro muloqot davomida konseptlar orqali murakkab madaniy ma'nolarni uzatadi, bu esa kommunikatsiya jarayonini yanada boy va chuqur qiladi;

– tarjima va madaniyatlararo muloqotda rol o'ynaydi. Konseptlar bir til va madaniyatdan boshqasiga tarjima qilinayotganda ideational va madaniy farqlarni yoritadi, tarjima jarayonida madaniyatlararo moslik va tafovutlarni tahlil qilishda yordam beradi[9].

Til – bu madaniyat kodidir. Konseptlar tilga jamlangan madaniy kodlar sifatida til foydalanuvchisiga dunyoni milliy nuqtai nazardan anglash imkonini beradi. Ular orqali har bir shaxsning ichki mental kartasi shakllanadi, unda atrof-muhit, odamlar va hodisalar madaniy kontekstga muvofiq tasavvur qilinadi. Bundan tashqari, konseptlar shaxsning milliy identifikatsiyasini rivojlantiradi. Til foydalanuvchisi o'zini til orqali ifodalagan madaniy normalar bilan bog'laydi va shu orqali o'z jamiyatiga bo'lgan aloqa, qadriyatlar tizimini mustahkamlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, konsept – madaniyatning tildagi mikro modelidir. Madaniyat konseptlar orqali inson tafakkurini shakllantiradi, til esa bu konseptlarni saqlaydi va avlodlarga uzatadi. Konsept va madaniyat munosabatini tadqiq etish nafaqat lingvistik, balki milliy o'zlikni anglash va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yishda ham muhim strategik ahamiyatga ega. Zero, o'zga xalq tilini o'rganish – bu o'sha xalqning konseptosferasiga kirish va uning dunyoni ko'rish nigohini qabul qilish demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Д. С. Лихачев. Концептосфера русского языка – Известия РАН. Серия литературы и языка, 1993. №1.
2. В. фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1984.
3. Степанов Ю. Константи С.: Словар русской культуры. – Москва: Академический проект, 2004.
4. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2004.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
6. Арутюнова Н. Д. Типология языковых значений. – Москва: Наука, 1988.
7. Вайшбицкая А. Семантика, культура и познание. – Москва: Русские словари, 1993.
8. Abdiraxmonova, I. (2025). Linguocultural Concept as a Basic Unit of Study in Linguoculturology. Modern Science and Research.
9. Yuldasheva, K.Y. (2024). The Notion of 'Concept' in Cultural Linguistics. International Engineering Journal For Research & Development.